85 31E-3)
S-84

TATYANA SEDIX
ТАТЬЯНА СЕДЫХ

O'ZBEKISTON KOMPOZITORLARINING FORTEPIANO UCHUN YOZGAN ASARLARI

ФОРТЕПИАННЫЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ КОМПОЗИТОРОВ УЗБЕКИСТАНА

85.31(X9)
S. 494

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA METODIKA VA AXBOROT MARKAZI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT MADANIYAT INSTITUTI

TOSHKENT DAVLAT MADANIYAT IN-TI
MUSIQA BO'LIMI

T.T.SEDIX

O'ZBEKISTON KOMPOZITORLARINING FORTEPIANO UCHUN YOZGAN ASARLARI

Birinchi kitob

Madaniyat va san'at oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT MADANIYAT IN-TI
AXBOROT MARKAZI
ASARLARI
Nº 12272(c)

«MUSIQA» nashriyoti
Toshkent
2010

Mazkur o'quv qo'llanma Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining katta o'qituvchisi Tatyana Sedix tomonidan tayyorlangan bo'lib, madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari, kollej, litsey va bolalar musiqa va san'at maktablarining o'qituvchi va o'quvchilari, professional konsert ijrochilari hamda keng musiqa ijrochilariga mo'ljallangan.

Muallif-tuzuvchi — **Tatyana Sedix,** Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining «Cholg'u jamoalariga rahbarlik» kafedrasining katta o'qituvchisi.

Mas'ul muharrir — **Baxtiyor Azimov,** Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining «Cholg'u jamoalariga rahbarlik» kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Musiqiy muharrir — **Ofeliya Yusupova,** Qoraqalpog'iston va O'zbekiston san'at arbobi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi «Maxsus fortepiano» kafedrasi professori.

Badiiy muharrir — **Antonina Kosheleva,** Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Taqrizchilar: **Rustam Abdullayev,** O'zbekiston san'at arbobi, O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi.

Irina Galushenko, O'zbekiston davlat konservatoriyasi «Musiqa tarixi va tanqid» kafedrasi professori, san'atshunoslik nomzodi.

ISBN 978-9943-307-33-9

© «Musiqa» nashriyoti, 2010.
© T.T.Sedix, 2010.

МИНИСТЕРСТВО ПО ДЕЛАМ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
РЕСПУБЛИКАНСКИЙ МЕТОДИЧЕСКИЙ И ИНФОРМАЦИОННЫЙ ЦЕНТР
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ КУЛЬТУРЫ
ИМЕНИ АБДУЛЛЫ КАДЫРИ

Т.Т.СЕДЫХ

ФОРТЕПИАННЫЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ КОМПОЗИТОРОВ УЗБЕКИСТАНА

Первая книга

Учебное пособие для высших образовательных учреждений искусства и культуры

Издательство «MUSIQA»
Ташкент
2010

Предлагаемый сборник «Фортепианные произведения композиторов Узбекистана», составленный старшим преподавателем Ташкентского Государственного института культуры им. Абдуллы Кадыри Татьяной Седых, предназначен педагогам и студентам высших образовательных учреждений искусства и культуры, преподавателям и учащимся музыкальных академических лицеев, колледжей искусства и культуры, детских школ музыки и искусства, профессиональным концертным исполнителям и широкому кругу музыкантов.

Автор-составитель	**Татьяна Седых,** старший преподаватель кафедры "Руководство инструментальными коллективами" Ташкентского Государственного института культуры им. А. Кадыри
Ответственный редактор	**Бахтиер Азимов,** кандидат педагогических наук, доцент, заведующий кафедрой "Руководство инструментальными коллективами" Ташкентского Государственного института культуры им.А.Кадыри
Музыкальный редактор	**Офелия Юсупова,** заслуженный деятель искусств Узбекистана и Каракалпакстана, профессор кафедры "Специального фортепиано" Государственной консерватории Узбекистана
Литературный редактор	**Антонина Кошелева,** кандидат педагогических наук, доцент Ташкентского Государственного института культуры им.А.Кадыри
Рецензенты:	**Рустам Абдуллаев,** деятель искусств Республики Узбекистан, Председатель Союза композиторов Узбекистана
	Ирина Галущенко, кандидат искусствоведения, профессор кафедры "Истории музыки и критики" Государственной консерватории Узбекистана

Издательство «Musiqa», 2010.
© Т. Седых, 2010.

MINISTRY OF CULTURE AND SPORTS AFFAIRS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
REPUBLIC METODIC AND INFORMATION SENTRE
TASHKENT STATE INSTITUTE OF CULTURE NAMED
AFTER ABDULLA KADIRI

T.T.SEDIX

FORTEPIANO MUSICAL COMPOSITIONS OF UZBEKISTANI COMPOSERS

PART ONE (BOOK) OF THE COLLECTION

Study guide for musical educational institutions

Publishing house «Music»
Tashkent
2010

The present collection «The pianoforte musical compositions of Uzbekistani composers» written by Tatyana Sedykh, the lecturer of Tashkent State Institute of Culture named after Abdulla Kadiri, is intended for lecturers and students of higher educational institutions of art and culture, teachers and students of musical academic lyceums, colleges of art and culture, schools of art, children's musical schools, professional concert pianists and large musical public

Collector	**Tatyana Sedykh,** lecturer of the Chair «Art directorship of instrumental music groups» of Tashkent State Institute of Culture named after A.Kadiri
Executive editor	**Bakhtiyor Azimov**, associate professor, candidate of pedagogical sciences, head of the chair «Art directorship of instrumental music groups» of Tashkent State Institute of Culture named after A.Kadiri
Musical editor	**Ofelia Yusupova**, head of the chair «Specialized pianoforte playing» of the State conservatoire of Uzbekistan, Honoured Art worker of Uzbekistan and Karakalpakstan
Literary editor	**Antonina Kosheleva**, candidate of pedagogical sciences, associate professor of Tashkent State Institute of Culture named after A.Kadiri
Reviewers	**Rustam Abdullaev**, statesman of art, president Composers of the Republic Uzbekistan
	Irina Galuschenko, Head of the Chair «History of Music» of the State conservatoire of Uzbekistan, candidate of Art criticism, Professor

© Publishing house «Music», 2010.
© T.T.Sedix, 2010.

EDITORIAL NOTES

1. The major goal of the present edition is to enlarge the pedagogical repertoire of musical educational institutions contributing the musical compositions of the composers of Uzbekistan. The works included in to the collection have a high artistic value and are able to develop creative interpretational thinking of young musicians. They demonstrate an exceptional brilliant national distinctness of piano creativity of the republican composers which reflected the search of new forms in artistic and constructive aspects on the grounds of continuity of traditions.

2. The collection consists of four sections. The first section contains the polyphonic compositions, the second section has the musical compositions of a large form, the third section includes the musical pieces of a small form and the fourth one contains the concert pieces. All the musical works have been given evaluative abstracts with methodical instructions. The majority of musical compositions included into the collection have been first published,

3. The authors compiling this collection were guided by the fact that compositions of different in genre, image structure and style, having originality and certain difficulties would be, undoubtedly, a good school for gradual acquiring skills in playing the piano.

4. Studying the represented material can allow gaining necessary practical skills in\ playing the piano, enrich artistic area of thought in becoming familiar with national peculiarity of Uzbek music and contribute into development of musical education in Uzbekistan.

BRIEF METHODICAL INSTRUCTIONS

Work on compositions included into this collection assumes thorough and profound studying, and first and foremost, understanding and sound realization of musical material which are the foundational tasks for pianists. Uzbek piano music is characterized by programmability being an orienting point for opening the world .of images and artistic content of music. In this regard the selection and use of performing expressive means is exercised.

In a number of musical compositions composers enriching the piano facture approach its sound palette to various timbres of the Uzbek folk instruments. That is why working over such compositions the teacher should acquaint the pupil, the student with Uzbek folk musical instruments, to listen to recorded and live performance of professional Uzbek musicians, masters of traditional performing art. All this will help to find brighter and optimum sound means, pianism paints necessary for expression of the national content.

Piano music of composers of Uzbekistan is characterized by richness of rhythmic structures, a variety of rhythm-formulas, *usuls,* therefore it is necessary to pay special attention to mastering rhythm. Studying of compositions included in the collection promotes many-sided development of a musician: to figurative thinking, technical perfection, and having a true ear for melody and polyphony.

In piano music of composers of the republic the important principle of musical statement is *monodia,* determined by ethnic peculiarity of Uzbek *melon.* This circumstance demands special attention to phrasing, flexible plasticity of melodic lines. Uzbek composers' works abound with polyphonic techniques to which the teacher should draw attention of a pupil or a student and by that to promote development of polyphonic thinking. The special approach should be made to understanding the tune mode nature of Uzbek piano music having absorbed in itself the principles of natural-tune harmony,tunes of folk music and their combinations.

The works included in the collection are distinguished for the variety of facture versions requiring intense and detailed work. Special attention is required to frequently met dynamic and tempo changes which the performer should not neglect. Studying the compositions intended for performing on the concert stage demands carefulness and depth of work. Alongside with it an outline acquaintance with plays for development of skills of independent work with musical texts and reading music at sight is expedient also. Attentive listening to tune-intonation spheres and studying all instructions and indications in the musical text will help the performer to deepen and concretize the idea of the composer by search of adequate means and sound effects and to overcome pianism difficulties.

The problems regarding the choice of fingering and pedal using are recommended to resolve individually in each concrete case depending on an actual structure of a hand and elasticity of muscles of a pupil or a student. After painstaking and detailed work on a musical text and the most difficult revealed culmination sections it is necessary to collect the studied composition together and to present it as an artistic single whole and as a basis for performing concept.

TUZUVCHI MUALLIFDAN

Mazkur o'quv qo'llanma musiqiy ta'lim muassasalaridagi pedagogik repertuarni O'zbekiston bastakorlarining asarlari hisobiga boyitish maqsadida yaratildi. To'plamga kiritilgan asarlar ularning yuksak badiiy qiymati bilan ajralib turish qatorida, musiqa ijrochilarining ijodiy interpretatsiya (talqin) qobiliyatining o'sishiga ham yordam beradi. Qo'llanmaga kiritilgan asarlar O'zbekiston bastakorlarining fortepiano ijrosi uchun yozgan betakror, yorqin, milliy ohanglashdagi ijod namunalari bo'lib, ularda milliy ohanglarni zamonaviy badiiy yechim vositasida ifodalash usulidan juda muvaffaqiyatli foydalanilgan. Shu bilan bir qatorda, ular musiqa ifodasidagi an'anaviylik ham saqlab qolinganligi bilan qadrlidir.

Qo'llanma to'rt bo'limdan iborat bo'lib, uning birinchi bo'limiga polifonik asarlar, ikkinchisiga – lirik shakldagi asarlar, uchinchisiga – kichik shakldagi pyesalar, to'rtinchi bo'limiga esa konsert pyesalari kiritilgan. Qo'llanmaga kiritilgan barcha asarlarning ijrosi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar berilmoqda. Bundan tashqari, asarlarning nota yozuviga shtrix, ijro etish uchun belgilar (applikatura), dinamik belgilar hamda fortepiano pedalidan foydalanish o'rinlarini ko'rsatuvchi shartli belgilar ham kiritilgan. Qo'llanmaga jamlangan asarlarning aksariyati birinchi marta chop etilmoqda. Asarlarni tanlashda kelajakda fortepiano ijrochiligi maktabining yanada rivojlanishi uchun xizmat qiladigan, turli janrlarga xos, uslub va soz jihatidan rang-barang, turlicha murakkablikdagi namunalarni jamlashga harakat qilindi.

Taqdim etilayotgan musiqiy asarlar fortepiano ijrochiligida zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarning boyitilishi, milliy o'zbek musiqasi borasidagi dunyoqarashning kengayishi, shuningdek, O'zbekistonda musiqiy ta'limning rivojlanishiga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

USLUBIY KO'RSATMALAR

Qo'llanmaga kiritilgan asarlar ustida ishlashda ijrochi oldiga qo'yiladigan vazifalarning asosi, ya'ni asarlarni har tomonlama va chuqur o'rganish, eng avvalo, berilayotgan musiqiy materialni anglash va tushunib yetishga alohida e'tibor berish zarur. O'zbekiston bastakorlarining asarlarini to'g'ri o'rganish uchun milliy yorqin o'ziga xoslik, obrazlar dunyosi va kayfiyatni his etish talab etiladi. Ana shulardan kelib chiqib, asarni tanlash va ijroda tegishli ifoda vositalarini qo'llash mumkin bo'ladi.

Kompozitorlar qator asarlarda fortepiano fakturasi(fortepiano uchun yozilgan nota matni)ni har tomonlama boyitish orqali uning ijrosida o'zbek xalq cholg'ulari tembrini berishga ham harakat qilishgani ko'zga tashlanadi. Shuning uchun mana shunday asarlar ustida ishlash jarayonida o'quvchilarni tegishli o'zbek milliy cholg'usi bilan tanishtirish, mohir milliy sozandalar ishtirokidagi jonli ijroni hamda audio yozuvlarni eshittirish lozim. Bularning hammasi ijroda talab etiladigan yorqin ohanglar va ularni hosil qilishning ifodaviy vositalari, milliy mazmunni ochib beruvchi musiqiy bo'yoqlar paydo bo'lishi uchun xizmat qiladi.

O'zbekiston bastakorlarining fortepiano asarlari ritmik tuzilmalarga boyligi, ritmik tizim va usullarning rang-barangligi bilan ajralib turadi. Shundan kelib chiqib, ritm ustida ishlashga alohida e'tibor qaratish zarur. Qo'llanmaga kiritilgan asarlarni o'zlashtirish o'quvchilarning obrazli tasavvuri kengayishi, ijro texnikasining o'sishi, melodik va polifonik eshitish qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston bastakorlarining fortepiano asarlaridagi yana bir o'ziga xos jihat ifoda jarayonidagi monodiya (bir ovozlilik), kuyning ustunligidir. Bu o'z navbatida, milliy o'ziga xoslikning ifodasidir. Ana shu holat kuy (melodiya) yo'nalishini saqlash va shu jarayondagi bo'ysunuvchanlikni ta'minlash kabi ijro uslublarini qo'llashni taqozo etadi. Ushbu asarlarda polifonik ifodaning boyligi (ko'pligi) esa o'quvchi va talabalarning polifonik dunyoqarashining kengayishiga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, o'zbek musiqasiga xos lad tizimlari – tabiiy lad garmoniyalari, xalq ladlari va ularning qorishmalarining O'zbekiston bastakorlari fortepiano musiqasida qo'llanilishi alohida e'tiborni talab etadi.

Qo'llanmaga kiritilgan asarlar faktura jihatidan rang-barangligi bilan ajralib turadi va bu o'z navbatida, jiddiy munosabatni talab qiladi. Ayniqsa, ovoz kuchi va ijro sur'atidagi tez-tez o'zgarishlar ijrochining e'tiboridan chetda qolmasligi kerak.

Konsert dasturlarida foydalanishni ko'zlab o'zlashtirilayotgan asarlar har tomonlama jiddiy munosabatni talab etadi. Shu bilan bir qatorda, ma'lum asarlarni o'quvchilarning mustaqil tayyorlashlari uchun zamin yaratish maqsadida umumiy ravishda tanishtirish, notani to'g'ridan-to'g'ri o'qish amaliyotidan ham foydalanish zarur. Asarlarda qo'llanilgan ladlarni his etish, uning talaffuz (intonatsiya) yechimini topa bilish, nota yozuvida ko'rsatilgan barcha ko'rsatmalarga amal qilish bastakor tasavvuri darajasidagi musiqiy obrazni yaratish uchun xizmat qiladi.

Barmoqlar va pedaldan foydalanishda har bitta asarga alohida yondashiladi. Bunda ijrochining fiziologik imkoniyatlari – qo'llar, barmoqlarning uzunligi, egiluvchanligi, mushaklarning holati e'tiborga olinadi. Asarlarning nota matni, uning eng murakkab bo'laklari o'rganilib bo'lingandan keyin yaxlit holga keltiriladi va yagona badiiy asar sifatida tinglovchilar hukmiga havola etiladi.

I BO'LIM

Polifonik asarlar

Fattoh Nazarov. Fuga (1960–70)

Mazkur uch ovozli fugada og'ir, bosiq harakat zarur. Umuman olganda fuga yaxlit shaklga ega, uning bo'laklari o'rtasida aniq chegara ko'zga tashlanmaydi. Musiqiy mavzuning xarakteri qat'iy ritmik asosga ega bo'lib, bosiq va shu bilan birga faol harakatni ifodalashi lozim. Mavzuning ruhi chuqur va zich tovushlardagi ijroni talab etadi. Fuganing ekspozitsiyasida an'anaviy tonal o'zgarishlar mavjud. Tovush yuritish esa erkin, ma'lum paytda alohida ovozlarning to'shilishi va chiqib ketishi ko'rinishida bo'ladi.

Fugadagi rivojlanish undagi materiallarning hayron qolarlik darajadagi yaxlitligiga asoslanadi. Mavzuning dastlabki motivi (ohangi) rivojlanish impulsi bo'lib xizmat qiladi. U keyinchalik keladigan bo'laklarda intonatsion o'zgarishlar asosida rivojlantiriladi. Miksolidiy ladining elementlari rivojlanish jarayonida tabiiy diatonik ladlar bilan o'zaro munosabatga kirishadi va musiqaning milliy tabiati bo'rttiriladi. Fuga dastlabki mavzuning kulminatsion tarzda bas ovozining ikkita oktavada birgalikda ijro etilishi bilan yakunlanadi. Bunda qo'llaniladigan *ff* (fortissimo) musiqaning tantanavorligini ta'minlaydi.

Fuga ustida ishlash jarayonida – imkoniyat darajasidagi ravonlik, barcha ovozlarning uychanligi, ritmga qat'iy rioya qilish va to'g'ri ifodalashga e'tiborni qaratish zarur. Fugadagi ovozlarni avvalo alohida o'rganish, keyin ikkita ovozni birga, undan keyin esa barcha ovozlarni birgalikda chalish uslubidan foydalanish zarur. Mazkur fuga talaba va o'quvchilarning polifonik mushohadasi o'sishi uchun juda zarur.

Farhod Alimov. Fuga № 1 (2003)

Uch qismli shaklda yozilgan uch ovozli mazkur fuganing tabiati (xarakteri) vazmin, jiddiy, tantanali va ulug'vordir. Uning mavzusi juda ajoyib tuzilmaga ega. U kichik seksta oralig'idagi kapazonda rivojlanib, so'ngra mavzuning o'rtasida ifodali ravishda yuqoriga ko'tariladi va sekin-asta pastga tushadi. Bunda foydalanilgan intonatsion uslub musiqadagi sakrash emas, balki uy yo'nalishidagi alohida hodisa sifatida qabul qilinishi lozim. Shundan keyin mavzu murojaatga o'xshash kattalashgan va siqiq ko'rinishda yangraydi.

Ijrochi mavzuni tahlil qilishda shu mavzudan butun fuganing o'sib chiqishini yodidan chiqarmasligi kerak. Mavzuning har safar takrorlanishi yangidan-yangi yorqin bo'yoqlar paydo bo'lishini ta'minlaydi. Fuganing asosiy rivojlanish yo'li ovozlarning parallel va alohida berilishi asosiga qurilgan tonal harakatlar va polifonik uslublarga tayanadi. Fuganing kulminatsiyasi (avji) reprizaning boshlanishiga to'g'ri keladi. Bu yerda mavzu ifodali va kuychan yangraydi. Bu esa tinchlanish hamda asosiy tonallik – sol minorga qaytishni ta'kidlaydi.

Farhod Alimov. Fuga № 2 (2003)

Mazkur uch ovozli fuganing tabiati harakatchan, *skerso* xarakteridadir. U uch qismli shaklda yozilgan. Fuga o'zining talaffuzi (intonatsiyasi), metro-ritmik xususiyati, diatonik tuzilishi

bilan yorqin milliy ruhda yozilganligini bildiradi. Mavzuni ijro etishda uning janrga xos xususiyati, ya'ni taktdagi kuchli hissalarni ta'kidlab ijro etish, shuningdek skersoga xos sinkopalar ijrosini to'g'ri tashkil etish lozim bo'ladi. Intermediyada esa polifonik tovushlarning o'zaro uyg'unlashuvi, forshlag va ritmning aniq ifodasiga erishish talab etiladi.

Fuganing o'rta qismida asosiy mavzu turli xil o'zgarishlarga uchraydi. Fugani ijro etishda kulminatsiya sari mantiqiy, oldindan ko'zlangan tovushni hosil qilish yo'lidan borish va kulminatsiyaning zalvorli, boyitilgan va to'liq jaranglashini ta'minlash lozim.

Reprizada esa kulminatsiyada erishilgan tovush kuchini saqlash qatorida faktura (nota)da yozilgan tovushlarning barchasi aniq eshitilishiga erishish kerak. Fugani yakunlovchi juda katta bo'lmagan koda mavzuni bir oz kengaytiradi. U xor ijrosiga xos tovush yo'nalishiga ega va bu uning bir oz ulug'vorligini ta'minlaydi. Koda ijrosida bir oz mavzuni sekinlashtirish va tovush kuchini susaytirish lozim.

Mazkur fuganing ijrosi talaba va o'quvchilardan fortepiano ijrochiligida qo'llaniladigan portamento, legato shtrixlarini puxta o'zlashtirishni talab etadi va bu o'z navbatida ularning polifonik eshitish qobiliyati, shuningdek, ijroni mantiqiy tashkil etish ko'nikmasining o'sishiga ta'sir etadi.

Farhod Alimov. Fuga № 3 (2003)

Ushbu uch ovozli fuga yorqin kolorit bilan sug'orilgan janrlar chizmasiga o'xshaydi. U yengil raqsona harakat shaffoflik va shaddodlik bilan to'ldirilgan. Fuganing fakturasi ham alohida yondashuvni talab etadi. Bunda ijrochidan yaxshi ta'b, mezonni to'g'ri his etish, garmonik posangi (ravnovesie) talab etiladi. Asosiy mavzu to'rt taktdan iborat. U talaffuz (intonatsiya) va ritmik tuzilma jihatidan boyitilgan bo'lib, ijro uslublari (shtrix)ga boydir. Mavzuni ijro etish jarayonida uning raqsona, quvnoqlik xarakterini ifodalash maqsadida nota matnida berilgan ijro uslublari, forshlaglar, dinamik tuslanishlardan samarali foydalanish zarur.

Dastlabki berilgan mavzuni rivojlantirishda musiqiy mavzuni ochib beruvchi turli polifonik uslublardan keng foydalanilgan. Bunda ijrochi zimmasiga muallif tomonidan yozilgan barcha ko'rsatmalarga amal qilish vazifasi yuklanadi. Ayniqsa, fuganing o'rta qismi va yakunida yuz beradigan tonal o'zgarishlar – bemol tonligiga o'tish hollariga alohida e'tiborni talab etadi.

Ushbu fuga ustida olib boriladigan mashg'ulotlar talaba va o'quvchilardagi polifonik tafakkurni tarbiyalaydi, ijroda polifonik fakturani ifodalashdagi turli ijro uslublarini mukammal egallashlari uchun xizmat qiladi.

Oydin Abdullayeva. Prelyudiya va Tokkata (1997)

Mazkur asar yaxlit siklni tashkil etadi. Lirik-falsafiy mazmundagi Prelyudiya milliy ruh bilan sug'orilgan. Bu holat asardagi kuy, lad va ritmda o'z ifodasini topgan. Fuga ijrosida uning bosiq, ulug'vor xarakteri ochilishi lozim. Akkordlar tantanavor, forshlaglar kuychan va shoshilmasdan, navbatdagi to'rt taktda paydo bo'ladigan triol va duollar esa xuddi usulga o'xshab ijro etilishi kerak.

14-20-taktlardagi kulminatsiyada tovushlarning keng qamrovli, chuqur yangrashi uchun fortepiano klaviaturasidan maqsadli foydalanish zarur.

Chap qo'lda sekvensiya usulida pastki registrga tushadigan partiya o'ng qo'lda ijro etiladigan boy akkordlar bilan to'ldiriladi. 21-taktdan boshlab uch hissali o'lchovga qaytiladi, ovoz kuchi esa metsso fortedan pianogacha tushiriladi.

Prelyudiya ijrosida turli musiqiy materiallarning har ikkala qo'ldagi ijrosini to'g'ri tashkil etish, pedallardan foydalanishda esa tovushlarning qorishib ketmasligini ta'minlash uchun o'z vaqtida tovushni o'chirishni tashkil etish kerak.

Tokkata uch qismli shaklda yozilgan. Tokkata bevosita Prelyudiyadan so'ng kelishi sababli musiqa tabiatining o'zgarishi yaqqol his etilishi kerak. Bunda faol tovushlarni hosil qilish yordam beradi. Tokkata fortissimo tusidagi akkordlar bilan boshlanadi. Kichik sukutdan

keyin o'ng va chap qo'llar orasidagi *marcato* boshlanadi. Birinchi berilgan mavzuning ijrosi milliy cholg'u – dutordagi panja bilan ijroga o'xshab ketadi.

Tokkataning o'rta qismi nisbatan kuychan bo'lib, unda muallif tomonidan ko'rsatilgan cantabile va meno mosso belgilari musiqiy obrazning yanada yorqin ifodalanishi uchun xizmat qiladi. Temp o'zgarishi yarimtalik notalarda berilgan, mavzuning kengroq ochilishini ta'minlaydi. O'ng qo'lda ijro etiladigan sakkiztalik notalar esa raqsona kayfiyat uchun xizmat qilishi lozim. Asarning repriza qismiga o'tishda tempda o'zgarish ko'rsatilmagan bo'lsa-da, boshlang'ich tempga qaytish zarur.

Repriza yorqin, dinamik xarakterda yozilgan. Oktava oralig'ida yuqorilab boradigan harakat esa yanada kengroq jarangdorlik va diapazon kengayishini ta'minlaydi. Bu yerdagi ovoz kuchi metsso pianodan forte fortissimogacha ko'tariladi va shu holatda asar o'z nihoyasiga yetadi. Ijroda ritmik aniqlik, birinchi hissalarda aksent ijrosi bo'lishi kerak. Pedallashtirishda ham me'yorga amal qilish, ya'ni tovushlarning tozaligiga erishish zarur.

Mazkur sikl ijrosida cholg'uchi zimmasiga muallif tomonidan qo'yilgan barcha belgilarga rioya etilgan holda, fortepiano cholg'usi ijrosining o'zbek xalq cholg'ulari ansambli ijrosi kayfiyatini berishga intilish vazifasi yuklanadi. Fakturadagi o'zgarishlar o'zbek cholg'ularidan dutor, chang, keyin milliy mezrobli cholg'ularning doira jo'rligida ijrosiga o'xshab yangrash uchun xizmat qiladi. Ijroning yanada yorqinroq bo'lishi uchun cholg'uchi qo'llariga zang taqib olishi ham mumkin.

II BO'LIM

Yirik shakldagi asarlar

Farhod Alimov. Sonatina (1975)

Mazkur sonatina klassik uslubdagi uch qismli shaklda yozilgan bo'lib, uning birinchi va so'nggi qismi tez, o'rta qismi vazmin sur'atda ijro etiladi. Fortepiano ijrosi uchun mo'ljallangan nota matni turli ko'rsatmalarga boy. Asar chuqur milliy ruh bilan sug'orilgan, kuychan ohang va lad o'zgarishlariga ega.

Birinchi qism sonatinalarga xos bo'lgan yorqin, raqsona xarakterdagi erkin sonata shaklida yozilgan. Uning nota matni shaffofligi bilan ajralib turadi. Asosiy partiya mavzusi sho'x bo'lib, klavishlarga yopishib ijro etmaslikni, shu bilan bir qatorda, qisqa forshlaglarni aniq chalib, musiqiy materialning dinamik rivojini ta'minlashni talab etadi. Yordamchi partiya ham raqsona xarakterga ega bo'lsa-da, kuychan va ifodaviyroq. Uning ijrosida sinkopalashgan notalarning tiniq ijrosiga e'tiborni qaratish zarur. 54-taktdan boshlanadigan qayta ishlash (razarabotka) qismida dastlab asosiy partiyadagi mavzu keladi. Ushbu mavzu qayta ishlanib, yanada rivojlantirilishi natijasida kulminatsiya (avj)ga kelinadi. Bu yerda o'zgartirishga uchragan yordamchi partiyaga o'rin beriladi va mavzu keng, yoyiq holatda berilishiga sabab bo'luvchi fortissimo va meno mosso ko'rsatmalariga ega. Ushbu jarayonda muallifning yana bir ko'rsatmasi *cantabile*ga alohida e'tiborni qaratish zarur. Muallif ko'rsatmasiga ko'ra ijro sur'ati *Tempo I* belgisigacha tezlashib boradi va birinchi qism yuqoriga intiluvchi o'n oltitalik passajlar bilan yakuniga yetadi.

Sonatinaning ikkinchi qismi – *Andante* lirik, romantik ruh bilan sug'orilgan noktyurn xarakterida yozilgan. Bu qism doimiy rivojlanib boruvchi kuychan mavzuga asoslanib, rivojlanish jarayonida har tomonlama emotsional xarakter kasb eta boradi. Kulminatsiyagacha jarayonda diapazon jihatidan ham kengayish davom etadi va keng qamrov, ulug'vor mavzuga aylanadi. Kulminatsiyada tovush kuchining orttirilishiga juda berilib ketmasdan uni nazorat qilish, ayniqsa muallif tomonidan ko'rsatilgan *dolce* iborasiga amal qilish zarur. Ushbu qismda cholg'uchidan *legato* uslubida *kantilena* (cho'zib ijro etish) ijrosini tashkil etish, ovoz kuchini to'g'ri belgilay olish malakalari talab etiladi.

Bu qism ustida ishlash talaba va o'quvchilarning tembrlarni eshitish qobiliyati, diez tonligidan bemol tonligiga va yana qayta diez tonligiga qaytish malakalari o'sishiga ko'maklashadi. *Tempo I* iborasi bilan boshlanadigan qism esa juda nozik, ta'sirchan, shu bilan birga, juda va erkin moslashuvchan ijro etilib. Andante mo'tadil yorug'lik ruhida yakunlanadi.

Sonatinaning uchinchi qismi hisoblangan *Final* o'z yo'nalishida tutqich bermas xarakter kasb etuvchi o'zbekcha tokkata uslubida yozilgan. U erkin rondosimon kompozitsiya shaklida bo'lib, unda bir-biri bilan almashib turuvchi hayotning turli lahzalari ifodalanadi. Bir necha bor turli o'zgarishlar bilan qaytariladigan asosiy tema (mavzu)ning ijrosini o'zbek xalq cholg'ulari tembriga yaqinlashtirish zarur. Tez tempda ijro etilayotgan sharoitda qo'llarning bir-biri bilan o'rin almashuvini juda aniq bajarishga to'g'ri keladi. F.Alimov ijodiga xos ruhiy holatni yuzaga keltirish uchun muallif tomonidan yozilgan ko'rsatmalarga so'zsiz amal qilish

ozim. Ayniqsa, kulminatsiya qismidagi *Lento esspressivo poco recitanto* iborasida musiqaning barcha go'zalligini his etgan holda, ijro uslubidagi barcha imkoniyatlarni ishga solish etiladi. General pauzadan keyin asosiy tempga qaytishda musiqaning xarakterini saqlab qolish va tutqich bermas doimiy harakat, vaqtning shiddati ifodalanishi kerak.

Muhammad Otajonov. Sonatina (1987)

Ikki qismli mazkur sonatina yorqin, hayotbaxsh xorazm xalq qo'shiqlari va raqslari ruhida yozilgan. Uning birinchi qismi erkin sonata shaklida bo'lib, kema-ket keluvchi qo'shiq va raqs xarakterini beradi. Ijroga qo'yiladigan talab – lirik kayfiyatdan dinamik harakatlar orqali tantanavor qahramonlik kayfiyatiga o'tish bilan belgilanadi.

Vazmin, osoyishta xarakterdagi bosh partiyaning ijrosi mayin *legato*, kuychanlikni talab etadi. Bunda to'g'ri (o'rtadagi) pedaldan foydalanish tavsiya etiladi. 13-14-taktlarda yordamchi partiyaga o'tishdagi xromatizmga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda tovushlarning o'zaro bog'langanligi va ifoda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yordamchi partiya bosh partiyadan keskin farqlanadigan o'ynoqi, raqsona xarakterga ega. Bunda o'ng qo'lda oktava oralig'ida chalinadigan stakkatolarning avvalo alohida holda mashq qilinishi, mashq jarayonida panjaning egiluvchanligini ta'minlash lozim bo'ladi. Chap qo'lda ijro etiladigan partiyada esa o'rta tovushni bo'rttirib ko'rsatish kerak. Shu paytda ijro etiladigan pastki tovush pedal bilan ushlab turiladi.

Qayta ishlov qismi (razrabotka) notalaridagi o'zgarishlarni ifodalashda turli ijro shtrixlari vositasida yirik va kichik texnik uslublardan foydalanishga alohida e'tibor berish kerak. Repriza qismida bosh partiya deyarli o'zgarishsiz kelsa, yordamchi partiya butunlay boshqacha ko'rinishda keladi. Sonatinaning birinchi qismi bayram shovqin-suroni bilan yakunlanadi.

Sonatinaning ikkinchi qismi manzaraviy xarakterga ega. U rondo shaklida yozilgan. Bu qismda birinchi qismdagi bayram obrazlari izchil davom ettiriladi. Ijroda ravonlik, aniqlik va ifodaviylik saqlanishi lozim. 25-37-taktlarda o'ng qo'ldagi oktava ijrosi bir oz qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Bu holda og'ir tempda notalarni alohida o'zlashtirish, *legato* mashqlari yordam beradi.

Refren musiqasi o'smirlik shiddati bilan sug'orilgan bo'lib, yengillik va erkinlikni talab etadi. Refrenning har qaytarilishida bu xarakter saqlanib qolishi lozim. Epizodlarda esa sinkopalashgan ritm, aniqlik ta'kidlanishi kerak. Chap qo'lda ijro etiladigan partiyada doira usulini imitatsiya qilish orqali milliy ruh kuchaytiriladi. Akkompanementdagi o'n oltitalik notalarni ravon va aniq ijro etish kerak. Ikkinchi epizodda chap qo'l partiyasiga alohida e'tiborni qaratib, basning yo'nalishini eshitish, uni pedal bilan ushlab turish kerak.

Sonata yorqin bayramona kayfiyatdagi koda bilan yakunlanadi. Bu yerda tovush kuchini fortissimogacha orttirish va ijro sur'atini kengaytirish lozim. Alohida e'tibor 175-185-taktlardagi oktava ijrosiga qaratilib, yakuniy akkordlarni to'laqonli, tantanavor ruhda ijro etish lozim.

To'lqin Toshmatov. Mavzu va variatsiyalar (1961)

To'qqizta variatsiyani o'z ichiga olgan bu asar muallifning ilk ijodiga mansubdir. Shunga qaramasdan ularda muallifning ijodiy yo'nalishi, lirik kechinmasi, musiqiy tili seziladi. Asar qisqaturiy emas, shu bilan bir qatorda, unda aniqlik, obrazlilik mujassamlashgan. Variatsiya mavzusiga folklor asos qilib olingan. Badiiy jihatdan u qo'shiq va raqslar janrlarini solishtirish asosiga qurilgan. Ammo bu solishtirishda alohidalikdan ko'ra bog'liqlik ustunroq turadi.

Mavzu yorqin milliy ruh bilan sug'orilgan bo'lib, bu jihat undagi bosiqlik va epik vazminlikda ko'rinadi. O'z navbatida shu xususiyatlar sinkopalashgan ritmik harakatlar bilan berilgan kuy o'rnalishida seziladi. Asar dostonsimon qo'shiq va cholg'u ijrosining uyg'unlashuviga o'xshash taassurot qoldiradi.

Ijrochi muallif ko'rsatmalariga to'liq amal qilgan holda shtrixlar, dinamik va temp o'zgarishlarini o'z vaqtida bajarishi, polifonik tizimni yaxshi eshita bilishi, tovushning to'g'ri yuritilishini ta'minlashi, birinchi variatsiyaga o'tishda esa fermatani ushlab, ijro sur'atini pasaytirishi lozim.

Birinchi variatsiya asosiy mavzuga juda yaqin bo'lib, unda kuy saqlanib qoladi. Kuy ijrosi o'ng

qo'l uchun mo'ljallangan. Mayin va *legato* ko'rinishida berilgan chap qo'l partiyasiga alohida e'tiborni qaratish zarur. Kuy unga jo'r bo'ladigan tovushlardan kuchliroq ijro etilishi kerak. Bu holatda o'ng va chap qo'llarning mutanosib ishlashi e'tibordan qochmasligi lozim. Ikkinchi variatsiyaga o'tish bog'langan holda, uyg'unlikni ta'minlab, ovoz kuchi va ijro sur'atini sustlashtirish yo'li bilan bajariladi.

Ikkinchi variatsiya biroz jonliroq tempda yangrab, unda mavzu chap qo'lda ijro etiladi. O'ng qo'l partiyasida esa triollar bilan berilgan jo'rnavozlik amalga oshiriladi. Triollar *legato* ko'rinishida ijro etilishi kerak. 13-16-taktlarda keladigan kulminatsiyada esa mavzu o'ng qo'lga o'tib, ikki oktavada ijro etiladi, 17-taktdan mavzu yana chap qo'lga qaytadi. O'n oltitalik triollar asarga raqsona kayfiyat bag'ishlaydi. Ijrochi bunda panja va barmoqlarning egiluvchanligi, ijrodagi aniqlik, shuningdek, qo'llarning vazifalariga alohida e'tibor qaratishi zarur. Ikkinchi variatsiya ham oldingi qismdagi singari kichik sekinlashish va navbatdagi variatsiyaga tayyorlanish bilan yakunlanadi.

Uchinchi variatsiya shiddatkor, bosim kuchiga ega bo'lib, o'z xarakteriga ko'ra tokkatani eslatadi. Uning ijrosida ritmik aniqlik, barmoqlarning kuchli va ehtirosli harakati zarur bo'ladi. Milliy musiqiy material, shuningdek, ikki qo'ldagi ijroning qo'shilishi dutor cholg'usining ijrosini eslatadi. Bu yerda o'n oltitaliklar bilan berilgan, tegishli hissalarini bo'rttirib ko'rsatish uchun xizmat qiladigan aksentlarga alohida e'tibor berish kerak. Ijrochi oldiga musiqaning dinamik xarakterini hisobga olgan holda *Allegro* qismidagi oktava ijrosining texnik jihatlarini ta'minlash vazifasi yuklanadi. Variatsiya uchta forte va do major tonligida yakunlanadi.

To'rtinchi variatsiya oldingi variatsiya bilan kontrast xarakterga ega. U nafis ayollar raqsini eslatadi. Ufori usuli, kuy va sinkopalashgan ritm uning milliy ruhini ta'kidlab turadi. Ijroda bir ovozda yoki oktavada berilgan kuy yo'nalishining ko'tarilishi va pasayishi, nafas va frazalar talqiniga e'tibor berish talab etiladi. 5-6 va 11-12-taktlarda o'ng qo'ldagi arpedjio akkordlarini aniq va mas'uliyat bilan ijro etib, 11-17-taktlarda keladigan kulminatsiyaga boyitilgan ovozlar bilan kirib borish kerak. 11-17-taktlarda chap qo'ldagi akkordlar kuyning tayanch nuqtalari sifatida qabul qilinishi kerak.

Beshinchi variatsiya polifonik tuzilmaga ega. Bastakor bu yerda nota yozuvining imitatsiya usulidan foydalanadi. Variatsiya xuddi fugadagi kabi bir ovozli boshlanadi, 4-taktdan ikkinchi, 9-taktdan esa uchinchi ovoz qo'shiladi. 13-taktdan yana boshlangan ikki ovozlilik variatsiyaning oxirigacha saqlanadi. Variatsiya ijrosida lirik-falsafiy, jiddiy xarakter ifodalanishi kerak. Bunda shtrixlarning aniqligi va ifodali talaffuzga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Oltinchi variatsiya oktavada ijro etiladigan musiqiy matnga ega bo'lib, diapazon kengligi ham ancha katta. Uning ijrosida yengil panja harakatlari, juda o'ynoqi *staccato* talab etiladi. Navbatdagi variatsiyaga o'tish ijro sur'atining pasayishi va ruhiy jihatdan tayyorgarlik bilan amalga oshiriladi.

Yettinchi variatsiya oldingi variatsiya bilan kontrast xarakterga ega. U *Presto* tempida yozilgan bo'lib, nota matni ustida juda jiddiy ishlash va mohirona ijroni talab qiladi. Ijrochi texnik murakkabliklarni yengish qatorida turli shtrixlarni ham aniq bajarishiga to'g'ri keladi. Texnik murakkabliklarni bartaraf etish maqsadida o'ng va chap qo'l partiyalarini alohida o'zlashtirish tavsiya etiladi. Bir qo'lda ijro etilayotgan matnning ikkinchi qo'lga o'tishi sezilmasligi kerak. Yana bir qiyinchilik dinamik talqinda bo'lishi mumkin. Bunda dinamik o'zgarishlar chegarasi aniq his etilishi kerak. Variatsiya yuqori registrdagi ijro va ijro sur'atining sustlashuvi bilan yakunlanadi.

Sakkizinchi variatsiya alohida muhitni yuzaga keltiradi. U milliy xarakter va raqsona tabiatni barpo etish uchun 5/8 hissasida yozilgan va uning ijrosida dutor cholg'usining imitatsiyasi seziladi, shuning uchun kvarta-kvinta sadosi ta'kidlanishi kerak. Mazkur variatsiya ijrochining metroritmik, dinamik tafakkurini fortissimodan pianissimogacha va yana to'tta forte ijrosigacha ovoz o'zgarishi jarayonida charxlaydi.

To'qqizinchi variatsiya keng freska yozuvida ifodalangan. Nota matni akkordlarga boy va ular forte, fortissimo ovoz kuchida tantanali, ulug'vorlik bilan ijro etishni talab qiladi. Ijrochi bunda cholg'u apparati (gavda, qo'l va barmoqlar)ning erkinligi va klavishlarga cho'chimasdan bosishga alohida e'tiborini qaratishi kerak. Variatsiya mazkur asarning yaxlitligini ta'minlash maqsadida asosiy mavzudagi koda bilan yakunlanadi.

Har bitta variatsiya alohida holda o'rganib bo'lingandan keyin, asarning kompozitsion tuzilmasini hisobga olgan holda, barcha qismlar jamlanishi kerak. T.Toshmatovning mazkur variatsiyalari badiiy yechimi, pianino ijrochiligi uslublariga boyligi bilan pedagogik repertuar sifatida ham, konsert repertuari sifatida ham foydalanish imkonini beradi.

III BO'LIM

Kichik shakldagi asarlar

Boris Giyenko. Ruboiy (1974)

12 ta konsert pyesalari tarkibidan olingan uchta pyesa ijrochi uchun juda boy va qiziqarli materialni taqdim etib, uning badiiy talqin tafakkurini kengaytirishga xizmat qiladi. Bastakorning tasviriy san'atdagi sharqiy poetik miniatyuralarning klassik shaklidan musiqa sohasida unumli foydalanishi juda ajoyib natijalarga olib kelgan. Kompozitor insonning qalbi, firklari va hissiyotlarini ifodalashga harakat qiladi. Berilayotgan pyesalar mavzu, janr va boshqa jihatlari bilan o'zaro farqlanadi. Ular nyuanslarning rang-barangligi, yorqin xarakteri bilan ajralib turadi. Miniatyuralardagi garmonik bo'yoqlar, yozuv fakturasi, xalq diatonik ladlari o'ziga xoslikni ta'minlaydi.

Birinchi pyesa impression va xalq usullari qorishmasi ruhidagi skersoni eslatadi. Kvarta tovush oralig'idagi parallel harakatlar alohida koloritni beradi. Ijrochidan mazkur musiqaning namoyon bo'lishi uchun lozim bo'lgan ifoda vositalarini qo'llashi talab etiladi. Ushbu pyesada muallif tomonidan yozilgan matn asosida yengil hazil o'z ifodasini topishi kerak.

Ikkinchi pyesa romantik musiqiy tilda bayon etilgan emotsional kuy xarakterini beradi. Musiqaning mazmunini ochishda muallif tomonidan ko'rsatilgan *narrante* (shivirlab) iborasiga alohida e'tibor berish kerak, bu fortepianoda rechitativ usulida ijro etiladi. Ijro jarayonida kuchli emotsional hissiyotning ifodasi o'z aksini topishi kerak.

Uchinchi pyesa jo'shqin tokkata bo'lib, o'zbek xalq cholg'ulari ijrosini eslatadi. Ijro jarayonida to'g'ri metro-ritmik usul, aniq talaffuz, beto'xtov harakat ifodalanishi kerak.

Yuqoridagi uchta asar alohida holda ham, yaxlit asar holida ham ijro etilishi mumkin.

Habibulla Rahimov. Bahor kayfiyati (1985)

Mazkur miniatyura bahor tabiatining yorqin tasviri, uyg'onish va yangilanish jarayonini ifodalaydi. Pyesa uch qismli shaklda yozilgan. Birinchi qism quvnoq, kuychan va ifodali xarakterda bo'lib, qushlarning sayrashiga taqlid ko'rinishida tabiatning yorqin obrazini ochib beradi. Birinchi qism ijrosida yengil raqsona harakat va parvoz holati aks ettirilishi lozim. Avval yuqori registrda, so'ngra nisbatan pastki registrlarda ijro etiladigan mavzu nafis ijro etilib, bahor obraziga mahliyo bo'lish o'z ifodasini topishi kerak. Avval chap, keyin o'ng qo'lda ijro etiladigan kuy yo'nalishidagi ohangdoshlikka alohida e'tibor qaratilishi kerak.

